BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

RAXIMOVA NODIRA KAMILJONOVNA

QORAQALPOG‘ISTON USTYURTI YAYLOVLARINING ZAMONAVIY HOLATI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘T 581.5.9:581.55:582

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Raximova Nodira Kamiljonovna
Qoraqalpog‘iston Ustyurti yaylovlarining zamonaviy holati…….....3

Рахимова Нодира Камилжоновна
Современное состояние пастбищ Каракалпакского Устюрта …….....27

Rakhimova Nodira Kamiljonovna
The current state pastures of the Karakalpak Ustyurt.....51

E'lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....55

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

RAXIMOVA NODIRA KAMILJONOVNA

QORAQALPOG‘ISTON USTYURTI YAYLOVLARINING ZAMONAVIY HOLATI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/B245 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Shomurodov Xabibullo Fayzulloyevich** biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Rajabov Toshpo‘lot Fayzulloyevich** biologiya fanlari doktori
	Usupbaev Adilet Kidikbekovich biologiya fanlari doktori
	Xo‘janazarov O‘ktam Eshtemirovich biologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc 02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 20-iyun kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (71-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 3-iyun kuni tarqatildi.
(2025 yil 3-iyundagi 10-raqamli reestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

F.I. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar rais o’rinbosari, b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Tabiiy resurslardan foydalanishning eng ekologik usullaridan biri yaylov chorvachiligi hisoblanadi. U ozuqa bazasini mustahkamlash, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish va tannarxini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligi chorva mollarini ko‘paytirish ushbu hududlarni xo‘jalik jihatidan o‘zlashtirishning yagona oqilona va iqtisodiy jihatdan foydali usuli bo‘lgan arid zonalardagi cho‘l yaylovlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo cho‘l mintaqalarida iqlim o‘zgarishi va ulardan nooqilona foydalanish natijasida yaylovlar strukturasining o‘zgarishi kuzatilmoqda. Bu ularning hosildorligining pasayishiga, ya'ni yuqori hosildor va ozuqaviy qiymatga ega yaylov turlari sifati past o‘simliklar bilan almashtirilib, kam qiymatli va yomon yeyiladigan galofil turlar ustunlik qilishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda cho‘l yaylovlari 50% dan 70% gacha turli darajada degradatsiyaga uchragan bo‘lib, ularning o‘rtacha hosildorligi so‘nggi yillarda 21% ga kamaydi. Chorva mollarining tartibsiz boqilishi o‘simliklarning nobud bo‘lishiga, ularning regressiyasiga va mahsuldorligining pasayishiga olib keladi, ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, shuningdek, Buxoro va Navoiy viloyatlarida ushbu ko‘rsatkich 42-43% ni tashkil etadi.

Respublikamizning ma'muriy tumanlarida yaylovlarning zamonaviy holati to‘g‘risida ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligi va ularning kam axborotliligi – chorvachilik xo‘jaliklarini samarali boshqarishni, yaylov yerlarining iqtisodiy salohiyatini baholashni, shuningdek, yaylovlar almashinuvini tartibga solish orqali kamyob turlar va o‘simliklar jamoalarini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni qiyinlashtirmoqda.

So‘nggi o‘n yilliklarda Ustyurt platosining Qoraqalpog‘iston qismi hududida Orol dengizining qurishi va sanoatning rivojlanishi bilan bog‘liq iqlim va ekologik sharoitlarning o‘zgarishi kuzatilmoqda. Bu mintaqa iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari kimyo va neft-gaz sanoati, shuningdek, qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan yaylov chorvachiligi bo‘lib, yil davomida ko‘plab chorva mollarini boqish imkonini beradi.

Bugungi kunda respublikamizda yaylovlarni asrash va ulardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga[1] mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Markaziy Osiyoda ekologik ifloslanishning oldini olish va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni hal qilish uchun yaylovlarning degradatsiyasi va transformatsiyasiga olib keladigan asosiy omillarni aniqlash, ularning darajasini baholash shkalasini ishlab chiqish, antropogen omillar ta'sirida degradatsiyaga uchragan yaylov yerlarining iqtisodiy salohiyatini baholash, yaylovlar tarkibidagi o‘zgarishlarning zamonaviy tendentsiyalarini aniqlash, Ustyurt yaylovlarining zamonaviy tasnifi va raqamli

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

xaritasini tuzish, ularning sig‘imini hisobga olgan holda yaylov xilma-xilligidan mavsumiy foydalanish sxemasini ishlab chiqishdan iborat. Bunda Ustyurt yaylov o‘simliklarining iqlim o‘zgarishi va Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq turli ekologik omillar ta'sirida shakllanishini belgilovchi qonuniyatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi PQ-3603-son “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi 299-son “Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi 914-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida” gi Qarorida, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 20 maydagi 538-son “Yaylovlar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 avgustdagi 689-son “Yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta'minlash va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2]. Global iqlim o‘zgarishi va antropogen omillar bilan bog‘liq yaylov ekotizimlarining hozirgi holatini, shuningdek, yaylovlarda kamyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik turlarining holatini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida, xususan, University of Utah (AQSh), University of Greifswald (Germaniya), Institute of Botany, CAS (Xitoy), Royal Botanic Garden Edinburgh (Shotlandiya), Macquarie University (Avstraliya), New Mexico State University (AQSh), Ben-Gurion University of the Negev (Isroil), Kunming Institute of Botany (Xitoy), En Gedi Nature Reserve (Isroil), Xinjiang Institute of Ecology and Geography (Xitoy), Markaziy Sibir Botanika bog‘i (Rossiya), Botanika va Fitointroduktsiya institutida (Qozog‘iston) olib borilmoqda.

Iqlim o‘zgarishi ta'sirida yaylov ekotizimlarining hozirgi holatini monitoring

[2] Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi http://www.works.doklad.ru, http://www.km.ru, www.dissercat.com, researchgate.net, http://www.fundamental-research.ru, www.webofscience.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

qilish, yaylovlardagi uzoq muddatli o‘zgarishlarni xaritalash, yaylov yem-xashak o‘simliklari ma'lumotlar bazasini shakllantirish va endem taksonlar populyatsiyasining hozirgi holatini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan dunyo tadqiqotlari natijasida bir qator natijalarga erishildi, jumladan: ekotizim jarayonlari qonuniyatlariga asoslangan yaylovlarni boshqarish usullari (Society for Range Management, AQSh), qurg‘oqchil iqlim sharoitida degradatsiyaga uchragan yaylovlarni tiklash mexanizmlari va tamoyillari yaratildi (Society for Ecological Restoration, AQSh); sun'iy agrotsenozlar yaratish orqali yaylovlar hosildorligini oshirish (Xinjiang Institute of Ecology and Geography, Xitoy), degradatsiyaga uchragan yaylovlarni fitomelioratsiya qilishda foydalaniladigan o‘simliklarning sho‘rlanishiga moslashish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Ben-Gurion University of the Negev, Isroil), kamyob va endem turlar populyatsiyalarining hozirgi holatini baholash usullari takomillashtirilgan (Kunming Institute of Botany, Xitoy).

Dunyoda yaylovlarning holatini baholash, ularning barqarorligi va ulardan oqilona foydalanish, ozuqa resurslarini o‘rganish va bir qator ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: o‘zgaruvchan iqlim sharoitida yaylovlarning rolini oshirish; yaylovlarni saqlab qolish usullarini ishlab chiqish; degradatsiya darajasini ko‘rsatuvchi yaylovlarning yirik masshtabli xaritalarini yaratish; yuqori hosildor yem-xashak o‘simliklari hisobiga degradatsiyaga uchragan yaylovlarni yaxshilash, kamyob va muhofazaga muhtoj turlarning holatini baholash.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. W.R. Teague et al. (2003); A.J. Rook, J.R. Tallowin (2003); G.M. McKeon et al. (2009); D. Briske (2017); D.W. Mccollum et al. (2017); L. Elgalise et al. (2018); R. Teague, U. Kreuter (2020) va boshqa tadqiqotlarda bioxilma-xillikni saqlash uchun yaylovlarni boshqarish muammosi o‘rganilgan. Qoraqalpoq Ustyurtining tabiati, o‘simliklari va yaylovlari haqidagi dastlabki ilmiy ma'lumotlar Ye.P. Korovin va I.I. Granitov (1949) ishlarida keltirilgan. Qoraqalpoq Ustyurti florasi va o‘simliklari I.F. Momotov (1953), V.P. Proshlyakov (1961), O.N. Bondarenko (1964), V.V. Viktorov (1971), S.E. Yerejepov (1978) tomonidan o‘rganilgan. Cho‘llanish jarayonida Qoraqalpoq Ustyurti o‘simlik jamoalarining tarqalish xususiyatlari X. Zaripov va boshqalar (1972), K. Aytbayev (1973), G. Sabirov (1977), A. Allaniyazov (1980, 1985), B. Saribayev va boshqalar (1977, 1981, 1987, 1994), K. Koybagarov (1973), P. Xalmuratov (1980), J. Utepbergenov (1980), P.A. Tajimuratov (1981), Sh. Saparov (1983) ishlarida tahlil qilingan. Qoraqalpoq Ustyurti o‘simliklarining yer ustki massasi dinamikasi; yaylovlar kartografiyasi va ularning degradatsiyasini o‘rganish; sun'iy yem-xashak maydonlarini yaratish orqali yaylovlarni yaxshilash; degradatsiyaga uchragan yaylovlarni optimallashtirishning ilmiy asoslari; Qoraqalpoq Ustyurti florasini tahlil qilish; yem-xashak o‘simliklarini o‘rganish va ulardan Orolbo‘yi yerlarini yaxshilashda foydalanish; o‘simliklar transformatsiyasi va fitotsenozlar strukturasining o‘zgarish qonuniyatlari; yarim cho‘l yaylovlari o‘simliklar qoplami transformatsiyasini ekologik-fitotsenotik baholash bo‘yicha tadqiqotlar K.

Tursunbayev (1970); U. Allanazarova (1982); O.X. Xasanov va boshq. (1983, 2000, 2006); X.F. Shomurodov va boshq. (2008); T. Raximova va boshq. (2018); D.M. Tajetdinova (2018); R.P. Aymuratov (2020); B.A. Adilov (2022), T.F. Rajabov (2022) ishlarida amalga oshirilgan.

Biroq, Ustyurt platosi yaylovlari to‘g‘risida zamonaviy ma'lumotlarning yetishmasligi bioxilma-xillikni saqlash va yerlardan oqilona foydalanishni qiyinlashtirmoqda. Orol dengizi halokati va chorva mollarining nazoratsiz boqilishi tufayli yuzaga kelgan muammolar yaylovlarning tanazzulga uchrashiga olib kelmoqda. Shunga ko‘ra, yem-xashak florasini o‘rganish, yaylovlarni xaritalash va tasniflash, kamyob turlarga antropogen omillarning ta'sirini o‘rganish hamda kompleks tadqiqotlar olib borish mintaqa bioxilma-xilligini saqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F5-FA-0-13289 «Cho‘llanish jarayonida Ustyurt o‘simlik va hayvonot olami rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari» (2017-2020) hamda «Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘simliklari qoplami va yaylov resurslarining zamonaviy holatini baholash» (2020-2024) mavzularidagi fundamental loyiha va davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yaylov chorvachiligidan barqaror foydalanish va rivojlantirish uchun Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining zamonaviy holati va imkoniyatini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qoraqalpoq Ustyurtining yem-xashak o‘simliklarini kompleks tahlil qilish;

Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining zamonaviy tasnifini tuzish;

Tadqiqot hududidagi yaylovlarning raqamli illyustrativ ma'lumotlar bazasini (“Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlari xaritasi”, “Yaylov sig‘imi xaritasi”, “Mavsumiy foydalanish xaritasi”) tuzish;

Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlari kadastrini tuzish;

asosiy ekologik omillarning gradiyentlariga bog‘liq holda yaylov o‘simliklarining fazoviy tuzilishini aniqlash;

differentsiatsiyalovchi turlarni tahlil qilish asosida yaylov ekotizimlarning barqarorlik darajasini va yaylov xillarining tarqalish qonuniyatlarini aniqlash;

o‘rganilayotgan hudud yaylov o‘simliklarining tabiiy va antropogen transformatsiyasi bilan bog‘liq holda kamyob turlarning mahalliy populyatsiyalari holatini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti Ustyurt platosining Qoraqalpog‘iston qismi yaylovlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti – yaylovlar tasnifi, xaritalash va kadastr, populyatsion ekologiyasi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada geobotanikaning klassik hamda zamonaviy metodlari bilan birga xaritalash, ordinatsion, populyatsion, fenologik va statistik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlari yem-xashak florasining tarkibi aniqlangan va uning taksonomik tavsifi, ekotoplar va biomorflar bo‘yicha tarqalishi hamda yeyiluvchanligini baholashni o‘z ichiga olgan kompleks tahlil amalga oshirilgan;

Qoraqalpoq Ustyurti yaylov o‘simliklar qoplamining shakllanishini belgilovchi omillari sifatida tuproq namligi va sho‘rlanish gradiyentlari bilan yaylov xillari o‘rtasidagi bog‘liqliklar ochib berilgan;

jamoalarning differentsiatsiyalovchi turlarini tahlil qilish asosida ekotizimlarning barqarorlik darajalari va tuproq-iqlim sharoitlariga bog‘liq holda yaylov xillarining tarqalish qonuniyatlari aniqlangan;

ontogenetik struktura va senopopulyatsiyalarning yosh tiplarini tahlil qilish asosida Ustyurt yaylovlaridagi yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlarning mahalliy populyatsiyalari holati baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

5 ta yaylov tipi (buyurg‘unzor, saksovulzor, yulg‘unzor, shohilakzor, sarsazanzor) va 43 ta yaylov xillarini birlashtirgan Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining zamonaviy tasnifi ishlab chiqilgan;

Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlaridan uzoq muddatli monitoring va barqaror foydalanish uchun manba bo‘lib xizmat qiluvchi “Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlari xaritasi”, “Yaylovlar sig‘imi xaritasi”, “Mavsumiy foydalanish xaritasi” va uning izohi ishlab chiqilgan;

Tadqiqot hududidagi 43 ta yaylov xillarining 21 ta yaylov ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan davlat kadastri tuzilgan;

O‘zbekistonning tekislik qismida yaylov xillarining degradatsiya darajasini baholash uchun shkala ishlab chiqilgan;

Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlari yem-xashak turlarining ma'lumotlar bazasi tuzilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan zamonaviy metodlar va ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, olingan natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, shuningdek dissertatsiya ishining amaliy natijalari tegishli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli xil ekologik gradiyentlarda yaylov xillari strukturasidagi o‘zgarishlar qonuniyatlari va senofloraning atrof-muhit omillari bilan bog‘liqligining aniqlanganligi, tadqiqot hududida yaylov kamyob turlari mahalliy populyatsiyalari holatini ularning senotik populyatsiyalarining strukturalari va tiplarini tahlil qilish asosida baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati degradatsiyaga uchragan yaylovlarni fitomelioratsiya qilish uchun mo‘ljallangan yem-xashak o‘simliklari ro‘yxatining tuzilganligi, o‘rganilayotgan hududdagi Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining uzoq muddatli monitoringini olib borishga xizmat qiluvchi yaylovlarning zamonaviy tasnifi va xaritasining yaratilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpoq Ustyurti

yaylovlarining zamonaviy holatini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

5 ta yaylov tipi va 43 ta yaylov xillarini birlashtirgan Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining tuzilgan zamonaviy tasnifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi o‘rmon xo‘jaligi agentligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasining 2024 yil 11 iyundagi №1-468-son ma'lumotnomasi). Olingan natijalar yaylov xillarining kadastr ma'lumotlarini yaratish va o‘rmon fondi o‘simliklarining raqamli platformasini yaratish imkonini bergan;

43 ta xarita birligidan iborat “Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlari xaritasi” va uning izohi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi o‘rmon xo‘jaligi agentligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasining 2024 yil 11 iyundagi №1-468-son ma'lumotnomasi). Olingan natijalar chorvachilikni rivojlantirishning eng istiqbolli konturlarini baholashga va yaylov yerlarini inventarizatsiya qilishda baholashga yordam bergan;

yem-xashak o‘simliklarining ro‘yxati, ularning tarqalishi (eyiluvchanligi, hayotiy shakllari, biotoplari va areal tiplari bo‘yicha) to‘g‘risidagi ma'lumotlar yuksak o‘simliklarning tur xilma-xilligini aniqlash uchun “Janubiy Ustyurt” Milliy tabiat bog‘i faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Janubiy Ustyurt” Milliy tabiiy bog‘ining 2024 yil 9 iyuldagi №01-01/60-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar Qoraqalpoq Ustyurti yuksak o‘simliklarining umumiy ro‘yxatini tuzish imkonini bergan;

Ustyurt kamyob turlarining tarqalishi, ekologiyasi va lokal populyatsiyalari strukturasi to‘g‘risidagi ma'lumotlar “Janubiy Ustyurt” Milliy tabiiy bog‘i faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Janubiy Ustyurt” Milliy tabiat bog‘ining 2024 yil 9 iyuldagi №01-01/60-sonli ma'lumotnomasi). Olingan natijalar Qoraqalpoq Ustyurtidagi muhofazatalab o‘simliklar populyatsiyasining holati bo‘yicha uzoq muddatli monitoring tadqiqotlarni o‘tkazishga xizmat qilgan;

ishlab chiqilgan yaylovlarning zamonaviy tasnifi va degradatsiya darajasi, shuningdek, yaylov xillaridan mavsumiy foydalanish bo‘yicha tavsiya etilgan amaliy chora-tadbirlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024 yil 6 avgustdagi №01/18-2-2653-sonli ma'lumotnomasi). Olingan natijalar yaylovlarga ta'sir etuvchi antropogen omillar va iqlim o‘zgarishi ta'sirida yuzaga keladigan mintaqaviy tahdidlarni aniqlash, shuningdek, Ustyurt bioxilma-xilligi uchun geologik qidiruv ishlarining oqibatlarini yumshatish imkonini bergan;

o‘rganilgan yaylovlarning hozirgi ekologik va fitotsenotik holati hamda

yem-xashak massasining hosildorligi (mavsum bo‘yicha) to‘g‘risidagi ma'lumotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024 yil 6 avgustdagi №01/18-2-2653-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar Qoraqalpog‘iston Respublikasida yaylov xillarini inventarizatsiya qilish va eng istiqbolli konturlarni baholashga, shuningdek, chorvachilikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan yaylov resurslari holatini aniqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 13 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 43 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 22 ta ilmiy maqola, jumladan, 12 ta respublika va 10 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Sanoat namunasi uchun 3 ta patent olingan (UZ SAP 02442, UZ SAP 02443, UZ SAP 02444).

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, yettita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 195 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublika va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti hamda predmeti keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpoq Ustyurti yaylov o‘simliklar qoplamining o‘rganilish tarixi”** deb nomlangan birinchi bobi Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining o‘rganilish holati, avval olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tahliliga bag‘ishlangan. Yaylovlarning o‘rganilish tarixi, jumladan, Ustyurtda yaylovlarni yaxshilash bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamdagi tadqiqotlar, tajriba-tadqiqot ishlari, fitomeliorativ tadbirlar, geobotanik tadqiqotlar natijalari batafsil bayon etilgan. Yaylovlarning holati, ulardan foydalanish, mintaqada neft-gaz tarmog‘ining rivojlanishi natijasida degradatsiyaga uchrashi, yaylovlarning zamonaviy tasnifi, kadastri, yaylovlarni barqaror boshqarish uchun raqamli xaritalarning mavjud emasligi bilan bog‘liq masalalar adabiyot manbalari asosida tahlil qilingan. Progressiv cho‘llanish sharoitida yaylovlar xilma-xilligi kadastri va raqamli xaritalar seriyasini tuzish Qoraqalpog‘iston Respublikasida yaylov

chorvachiligini tizimli rivojlantirish va tabiiy yaylovlardan oqilona foydalanishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududi. Tadqiqot ob'ekti va metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot hududining joylashishi, tabiiy sharoiti va metodlari bayon etilgan.

Qoraqalpoq Ustyurti O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan. Shimoli-g‘arbda Kaspiybo‘yi pasttekisligi, sharqda Orol dengizi va uning qurigan tubi, janubda Amudaryo deltasi bilan chegaradosh. Hududning umumiy maydoni 7,2 mln gektarni tashkil etadi. Landshafti shimoldan janubga o‘tuvchi o‘simliklar o‘sadigan gilli shuvoqli-sho‘razor va loyli-shag‘alli cho‘llardan iborat. Iqlimi keskin kontinental, yozi issiq, quruq, qishi qahraton, atmosfera yog‘inlari kam, bug‘lanish yuqori. Tuproq qoplamiga kulrang-qo‘ng‘ir cho‘l tuproqlari, yuvilgan tuproqlar, taqirlar, sho‘rxoklar va gipsli tuproqlar kiradi (Aimbetov va boshq., 2017).

Bobda shuningdek, tadqiqotni amalga oshirishda qo‘llanilgan metodlar to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpoq Ustyurti yem-xashak o‘simliklarining tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobi yem-xashak o‘simliklarining kompleks tahliliga bag‘ishlangan.

Birinchi bo‘limda Qoraqalpoq Ustyurti yem-xashak o‘simliklarining taksonomik tahlili keltirilgan bo‘lib, hududda 40 oila, 183 turkumga mansub 335 yem-xashak turlar tarqalganligi aniqlandi. Oilalar spektrida 7 dan ortiq turlar bo‘yicha *Amaranthaceae* (68 tur), *Asteraceae* (50), *Brassicaceae* (32), *Poaceae* (30), *Boraginaceae* (20), *Fabaceae* (20), *Apiaceae* (12), *Caryophyllaceae* (9), *Polygonaceae* (9) va *Zygophyllaceae* (7) oilalari yetakchilik qiladi. Ushbu oila vakillari 257 turni birlashtiradi, bu esa tadqiqot hududidagi barcha yem-xashak o‘simliklarining 77,3% ni tashkil qiladi. Yem-xashak o‘simliklarining yetakchi oilalari spektri A. Baxiyev (1987) va D. Tajetdinova (2018) tomonlaridan tavsiflangan Ustyurtning umumiy floristik spektriga mos keladi, bu yerda birinchi o‘nlikda umumiy floraning 70% dan ortiq turlari to‘plangan. Bu holat tog‘ floralarining o‘xshash ko‘rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori (masalan, G‘arbiy Tiyon-Shon florasi uchun – 64,52% (Tojibayev, 2010), Nurota tizmasi uchun – 64,54% (Beshko, 2020)) bo‘lib, bu tuproq-iqlim sharoiti tufayli Ustyurt florasining kam xilma-xilligi (ayniqsa, boreal turlarning minimal miqdori) bilan izohlanadi. O‘rganilayotgan hudud yem-xashak florasida 10 dan ortiq turga ega yirik turkumlar mavjud emas (*Astragalus* L. – 12 turdan tashqari). 11 turkum (*Artemisia* L., *Ferula* Tourn. ex L., *Anabasis* L., *Atriplex* L., *Lappula* Moench, *Climacoptera* Botsch., *Stipa* L., *Strigosella* Boiss., *Zygophyllum* L., *Cousinia* Cass., *Calligonum* L.) 5-6 turdan iborat bo‘lib, ular *Astragalus* bilan birgalikda atigi 21,6% ni tashkil etadi. Yem-xashak o‘simliklarining turlar boyligini shakllanishida asosiy ulush oligotrop turkumlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bobning ikkinchi bo‘limi yem-xashak o‘simliklarining biotoplari, yeyiluvchanligi va hayotiy shakllari bo‘yicha tahlil qilishga bag‘ishlangan. Yem-xashak o‘simliklarining biotoplar bo‘ylab tarqalishini tahlil qilish gipsofillar

yuqori xilma-xillikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ustyurt cho‘lida 216 o‘simlik turi qayd etilgan bo‘lib, ularning rivojlanishi u yoki bu darajada gipsli yashash muhiti bilan bog‘liq. Qumli tuproqlar turlar bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi – 169 tur. Turli darajada sho‘rlangan hududlarda 107 tur, fragmentar to‘qaylarda – 34 tur, taqirlarda esa 19 tur uchraydi.

Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarida qoniqarli yeyiladigan turlarning (147 (yoki umumiy turlarning 44,4%)) ustunligi Markaziy Osiyoning janubiy cho‘llariga xos bo‘lgan dag‘al poyali o‘simliklarning ustunligi bilan bog‘liq. Barcha yem-xashak o‘simliklarining kamida ¼ qismini tashkil etuvchi yaxshi yeyiladigan turlarning (87 tur (26,2%)) ulushi, shuningdek, ularning yomon yoki qisman yeyiladigan turlardan (77 tur (23,2%)) ustunligi o‘rganilayotgan hudud yaylovlarining yuqori sifatli ekanligidan dalolat beradi.

Yaxshi yeyiladigan turlarning oilalar bo‘yicha taqsimlanishi tahlili Ustyurtning barcha yem-xashak florasi (etakchi oilalar spektri) bilan deyarli bir xil. Ro‘yxatda *Bromus* L., *Agropyron* Gaertn., *Sporobolus* R.Br., *Catabrosella* (Tzvelev) Tzvelev, *Cynodon* Rich., *Poa* L., *Puccinellia* Parl., *Stipa* L., *Schismus* P. Beauv., *Stipagrostis* Nees va boshqa turkum turlarning yuqori yem-xashaklilik sifatlari tufayli *Poacea* oilasi yetakchilik qiladi. *Brassicaceae* oilasining xush ko‘rib yeyiladigan turlarining yuqori foizi yumshoq poyali o‘t o‘simliklarga tegishli bo‘lib, *Fabaceae* oilasining aksariyat turlari ham shu xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xuddi shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan *Haloxylon* Bunge ex Fenzl, *Caroxylon* Thunb., *Artemisia* L., *Krascheninnikovia* Gueldenst. turkum turlari tadqiqot hududining landshaft turlari bo‘lganligi bois yaylovlarning yuqori salohiyatidan dalolat beradi.

Biomorflarning nisbati bo‘yicha o‘t o‘simliklar ustunlik qiladi (81,5%), ular orasida bir yillik o‘simliklar yetakchi o‘rinni egallaydi (153 tur yoki 46,2%). Bir yillik o‘simliklarning oilalar bo‘yicha taqsimlanishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning aksariyati *Amaranthaceae* oilasiga (12,6%) to‘g‘ri keladi va janubiy cho‘llar florasining xususiyatini aks ettiradi. Tadqiqot hududi yaylovlarida daraxt-buta o‘simliklarining soni kam – 61 tur (2 tur daraxt, 23 ta butalar, 6 ta butalar, 19 ta yarim butalar va 11 ta yarim butachalar).

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining tasnifi va tavsifi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining zamonaviy tasnifi, hosildorligi va yil fasllari bo‘yicha samarali foydalanish to‘g‘risidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Ushbu bobning birinchi bo‘limi yaylovlar tasnifi va ularni xaritalashga bag‘ishlangan. Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining sintaksonomik tahlili uchta kompleks va 43 ta yaylov xillarini (YaX) birlashtirgan beshta: buyurg‘unzor, saksovulzor, yulg‘unzor, shohilakzor va sarsazanzor tiplariga ajratildi. *Anabasis salsa* (Ledeb.) Benth. ex Volkens ning o‘ta ekologik moslashuvchanligi tufayli, uning dominantligidagi yaylov xillari o‘rganilayotgan hududning barcha qismida kulrang-qo‘ng‘ir qumoqli sho‘r bo‘lmagan, sho‘r va sho‘rxok-sho‘r, yuqori gipslashgan tuproqlarda tarqalgan. Qoraqalpoq Ustyurtining ushbu tipdagi yaylovlari taqirsimon sho‘rxok tuproqlarda (1) qoraboyalishli-buyurg‘unzor

(*Anabasis salsa, Oreosalsola arbusculiformis*) YaX kompleksi; (2) monodominant buyurg‘unzor (*Anabasis salsa*) kompleksi YaX qumoq sho‘rxoksimon-sho‘rxok, ba'zi joylarda yuqori gipslashgan tuproqlarda va o‘nta YaX birlashtiruvchi (3) oqshuvoqli-buyurg‘unzor kompleksi (*Anabasis salsa, Artemisia terrae-albae*) qumoqli sho‘rxok-sho‘r tuproqlarda tarqalgan.

Qoraqalpoq Ustyurti yaylov o‘simliklarining yagona daraxtsimon tipi saksovulzor bo‘lib, u o‘zida shohilakli-saksovulzor (*Haloxylon ammodendron, Kalidium caspicum*), quyrovuqli-saksovulzor (*Haloxylon ammodendron, Caroxylon orientale*), oqshuvoqli-quyrovuqli-saksovulzor (*Haloxylon ammodendron, Caroxylon orientale, Artemisia terrae-albae*), quyrovuqli-oq shuvoqli-saksovulzor (*Haloxylon ammodendron, Artemisia terrae-albae, Caroxylon orientale*) va buyurg‘unli-oqshuvoqli-qora saksovulzor (*Haloxylon ammodendron, Artemisia terrae-albae, Anabasis salsa*) ni birlashtiradi. Yuqori ozuqaviy qiymatga ega bo‘lgan bu YaX taqirlashgan sho‘rxoklar, gipsli qumlar va sho‘rxoklarda tarqalgan.

Qolgan yaylov tiplari kamroq xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Shohilakzor tipi yagona yaylov xilma-xilligi bilan ifodalanadi, ba'zi joylarda *Halocnemum strobilaceum* (Pall.) M.Bieb., *Halostachys capsica* (M.Bieb.) C.A.Mey. va *Limonium otolepis* (Schrenk) Kuntze bilan yuqori yarusni hosil qilib, sho‘rxoklarda kuzgi-qishki yaylovlarni shakllantiradi. *Tamarix hispida* Willd. va *T. yelongata* Ledeb. dominantlik qiluvchi yulg‘unzor YaX shohilak va saksovul jamoalari bilan birgalikda qoldiq sho‘rxoklar va gipslashgan soxta qumlarda tarqalgan, ba'zi joylarda g‘adir-budur gipslashgan qumlarda psammofil guruhlar bilan aralashadi. Sarsazanzor tipi nam sho‘rxoklarda tarqalgan sarsazanzor va shohilakli-sarsazanzor YaXni birlashtiradi. Bu ikkala yaylov faqat galofit turlardan iborat floristik tarkibi kamligi bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyada har bir yaylov xillari batafsil tavsiflangan. Ularning tarqalishi va maydoni birinchi marta tuzilgan yirik masshtabli raqamli “Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlari xaritasi”da aks ettirilgan.

Bobning ikkinchi bo‘limida tadqiqot hududining yaylov sig‘imi bo‘yicha ma'lumotlar keltirilgan. Hududiy bonitirovka shkalasi bo‘yicha Ustyurt yaylovlari uch sinfga ajratildi: o‘ta kambag‘al yaylovlar, kambag‘al yaylovlar, kambag‘allashgan yaylovlar. Tadqiqot hududidagi YaXlarining aksariyati (82%) o‘ta kambag‘al yaylovlarga to‘g‘ri keladi, 13% kambag‘al yaylovlar va 5% buyurg‘unzor tipidagi birlamchi YaXlari ustunlik qilgan kambag‘allashgan yaylovlar sifatida tavsiflanadi. Har bir YaX uchun mavsumiy yaylov yuklama normasi hisoblab chiqilgan bo‘lib, ular raqamli “Qoraqalpoq Ustyurtining yaylov sig‘imi xaritasi”da aks ettirilgan.

Bobning uchinchi bo‘limi yaylovlarni o‘rganishda lozim bo‘lgan muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan mavsumiy foydalanishni baholashga bag‘ishlangan. Yeyiladigan massa hosildorligi (gektariga, s), mavsumiy hosildorlik (sh.o.b. bo‘yicha, gektariga, s), yem-xashak zahirasi va yaylov yuklamasi asosida yaylov yerlarning mavsumiy hosildorligi mavsumiy foydalanishga bog‘liq holda tahlil qilindi. Bunda uchta guruh ajratildi: yil davomida, yozgi-kuzgi-qishki, kuzgi-qishki yaylovlar. Tadqiqot hududida yaylovlardan kuzgi-qishki (58%) va yil davomida

(30%) foydalanishning ustunligi yaylovlardan foydalanishning mavsumiy xususiyatini shakllantirishda buta va yarim buta o‘simliklarining roli yuqoriligini ko‘rsatadi. Yoz-kuz-qish mavsumi uchun mo‘ljallangan YaXning kichik ulushi (12%), shuningdek, bahorda foydalanishga mo‘ljallangan yaylovlarning yo‘qligi bahor mavsumining qisqa davomiyligi va atmosfera yog‘inlarining yuqori o‘zgaruvchanligiga bog‘liq bo‘lgan efemerlar va efemeroidlarning beqaror hosildorligi bilan bog‘liq.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlari kadastri”** deb nomlangan beshinchi bobida tadqiqot hududidagi yaylovlarning respublika me'yoriy hujjatlarida ko‘rsatilgan 21 ta kadastr ma'lumotlari bo‘yicha natijalar keltirilgan.

Buyurg‘unzor yaylov tipi. Qoraboyalishli-buyurg‘unzor kompleksi. Qoraqalpoq Ustyurti yaylovlarining zamonaviy tasnifi bo‘yicha qoraboyalishli-buyurg‘unzor kompleksi hududning shimoliy va sharqiy qismining yarmini (1 291413 ga) qamrab olgan va Qoraqalpoq Ustyurtining shag‘alli, qumoq, taqir-sho‘rxok, gipslashgan tuproqlarida tarqalgan. Yeyiladigan massa hosildorligi (gektariga, s), mavsumiy hosildorligi (sh.o.b. bo‘yicha, gektariga, s), ozuqa zahirasi va yaylov yuklamasi baholanishi bo‘yicha qoraboyalishli-buyurg‘unzor kompleksidan kuzgi-qishki yaylov sifatida foydalanish tavsiya etiladi (1-rasm). Yeyiladigan massa hosildorligi gektariga 0,8 dan 2,3 s gacha o‘zgarib turadi, eng yuqori hosildorlik kuzga to‘g‘ri keladi. Kompleks “o‘ta kambag‘al yaylovlar” (o‘rtacha 8,2 ball) sifatida baholangan va har gektar maydonda o‘rtacha 0,8 s ozuqa birligini saqlab qoladi. Yillik yaylov yuklamasi 5987 boshdan 25394 boshgacha tuyani yoki 39526 boshdan 167613 boshgacha qo‘yni tashkil etadi. Degradatsiya darajasi past deb baholandi.

Buyurg‘unzor kompleksi Qoraqalpoq Ustyurtining boshqa komplekslariga nisbatan katta maydonni egallaydi (2 664774 ga) va umumiy hududning 36,4% ni tashkil etadi. Taqirsimon, qumoq sho‘r-sho‘rxoksimon, ba'zi joylarda kuchli gipslashgan tuproqlarda tarqalgan. Buyurg‘unzor kompleksi yeyiladigan massasining hosildorligi gektariga 0,5 dan 2,0 s gacha o‘zgarib turadi va kuzgi-qishki yaylov sifatida foydalanishga tavsiya etiladi. Har bir gektardagi ozuqa birligi o‘rtacha 0,9 s ni tashkil etadi va bonitirovka sinfi bo‘yicha “o‘ta kambag‘al yaylovlar”ga kiradi (o‘rtacha 8,8 ball). Degradatsiya darajasi past bo‘lib, “shartli ravishda foydalanilmayotgan” deb baholanadigan tuproq yo‘llar saqlanib qolmoqda. Yillik yaylov yuklamasi 26 boshdan 87530 boshgacha tuyani yoki 173 boshdan 577698 boshgacha qo‘yni tashkil etadi.


Oqshuvoqli-buyurg‘unzor kompleksi egallagan maydoni bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi (2 432821 ga) va asosiy maydonlari Qoraqalpoq Ustyurtining markaziy qismida joylashgan. Yeyiladigan ozuqa massasining hosildorligi gektariga 0,5-3,0 s ni tashkil etadi. Ushbu kompleks vakillari har bir gektar maydonda o‘rtacha 1,1 s ozuqa birligini saqlaydi va “o‘ta kambag‘al yaylovlar”ga kiradi. Tuyalar va mayda shoxli mollar uchun o‘rtacha mavsumiy yuklama gektariga mos ravishda 0,04 va 0,3 birlikni tashkil etadi. Kelib chiqishi gaz qazib olish majmualari va yo‘l infratuzilmalar faoliyati bilan bog‘liq holda degradatsiya darajasi o‘rtacha deb baholandi.

Saksovulzor yaylov tipi floristik tarkibiga koʻra nisbatan boy va xilma-xildir. Agiin, Churuq shoʻrxoklari, Kartpaykum qumlari atrofida va Sariqamish hamda Assakeaudan botiqlari atrofida kulrang-qoʻngʻir tusli gipslashgan shoʻrxoklarda, qatqaloqli shoʻrxoklarda, gʻadir-budur gipslashgan qumlarda va taqirlashgan shoʻrxok tuproqlarda saksovulzorlarning katta maydonlari mavjud. Saksovulzor tipining yeyiladigan massa hosildorligi gektariga 3,5 dan 7,3 s gacha oʻzgarib turadi. Yeyiladigan massa hosildorligi, ozuqaning toʻyimliligi va ozuqa zahirasi boʻyicha hisob-kitoblar shuni koʻrsatdiki, saksovulzor tipidagi yaylovlardan kuzgi-qishki-bahorgi yaylovlar sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Tip "kambagʻal va kambagʻallashgan yaylovlar" sifatida baholanadi (20-42 ball). Yaylov yuklamasining yillik hajmi 2 mingdan 16 ming boshgacha tuyani yoki 13 mingdan 109 ming boshgacha qoʻyni tashkil etadi.

Platodagi *yulgʻunzor tipi yaylovlari* maydoni katta emas, ular Sariqamish koʻli atrofidagi shoʻrxoklarda va ba'zi joylarda qumoq tuproqlarda hamda Assake-audandagi botiqlarda uchraydi. Bu tipning yeyiladigan massasi gektariga 2,2 dan 8,9 s gacha oʻzgarib turadi. Yulgʻunzor tipi "kambagʻal yaylovlar" sifatida baholanadi (23-27 ball). Degradatsiya darajasi – oʻrtacha. Oʻrtacha mavsumiy yuklama tuyalar uchun gektariga 0,03 dan 0,04 gacha va mayda shoxli mollar uchun 0,2 va 0,3 birlikni tashkil etadi. Ozuqa massasining hosildorlik koʻrsatkichlari, toʻyimliligi va chorva mollari bosh sonining me'yorini hisobga olgan holda, yaylovlarning yulgʻunzor tipini yil boʻyi foydalaniladigan yaylovlar sifatida tavsiya etish mumkin.

*Shohilakzor yaylov tipi*ning katta hududlari Sariqamish, Qozoqlishoʻr, Borsakelmas shoʻr koʻli atrofida joylashgan. Shohilakzor tipidagi yaylovlar kichik maydonlarni (50 830 ga) egallaydi, ularning asosiy qismi Qoraqalpoq Ustyurtining markaziy qismiga toʻgʻri keladi. Oʻrganilgan tipning oʻrtacha yeyiluvchan massa hosildorligi gektariga 0,6-2 s oraligʻida boʻlib, bonitirovka shkalasi boʻyicha "oʻta kambagʻal yaylovlar" guruhiga kiradi. Degradatsiya darajasini past deb baholash mumkin: tuproq yoʻllar va gaz quvurlari liniyalari kabi kam sonli qurilish ishlari yaylovlar holatiga sezilarli darajada tahdid solmaydi. Yaylovlarning tur tarkibi, hosildorligi va ozuqaning toʻyimliligidan kelib chiqib, shohilakzor tipidagi yaylovlarni kuzgi-qishki yaylovlar sifatida foydalanish uchun tavsiya etish mumkin.

Sarsazanzor tipi yaylovlarining asosiy maydonlari Qoraqalpoq Ustyurtining markaziy va shimoliy qismlarida joylashgan. Halocnemum strobilaceum (sarsazan) nam va koʻpchimali shoʻrxoklarda, shoʻrlar, shoʻr koʻllar atrofidagi qumoq va qumloq shoʻrxok tuproqlarda, doʻng pastliklarda, chukoloklarda, shuningdek, gipslashgan koʻpchimali shoʻrxoklar va soxta qumlarda (umumiy maydoni 77 426 ga) (1-rasm) juda koʻp uchraydi. Sarsazanzor yaylovlarining tur tarkibi boy emas, 12 turdan oshmaydi. Ushbu turdagi yeyiladigan massa hosildorligi gektariga 0,9-4,3 s oraligʻida oʻzgarib turadi. Yillik yaylov yuklamasi hajmi 1004 dan 3995 boshgacha tuyani yoki 6638 dan 26374 boshgacha qoʻyni tashkil etadi. Sarsazanzor tipi yaylovlarini kuzgi-qishki yaylovlar sifatida tavsiya etish mumkin.




1-rasm. O‘rganilgan yaylov tiplarining ayrim ko‘rsatkichlari: a) maydoni (ga), b) hosildorligi (ts/ga), c) bonitet sinfi, d) mavsumiy foydalanish.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpoq Ustyurti yaylov o‘simliklarining ekologik tahlili”** deb nomlangan oltinchi bobida tadqiqot hududi yaylov o‘simliklarining ekologik omillar bilan bog‘liqligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Turon cho‘llarining asosiy ekologik omillari bo‘yicha yaylov o‘simliklarining geobotanik qaydnomalari ordinatsiyasi kserofil va galofil jamoalarning ustunligini ko‘rsatadi. Tavsiflangan o‘simlik jamoalari namlik gradiyenti bo‘yicha 10 dan 58 pog‘onagacha bo‘lgan oraliqni egallaydi, bu qiymatlar esa cho‘ldan quruq o‘tloqqacha bo‘lgan namlik darajasiga to‘g‘ri keladi. Tuproqning sho‘rlik gradiyentida tavsiflangan qaydnomalar egallagan oraliq ancha tor bo‘lib, 17-dan 20-pog‘onagacha bo‘lgan oraliqni qamrab oladi, bu esa asosan o‘rtacha sho‘rxok sho‘rlanish darajasiga to‘g‘ri keladi.

Turli ekologik omillarning o‘simliklar differentsiatsiyasiga qo‘shgan hissasini aniqlash uchun bilvosita SSA-ordinatsiyasi amalga oshirildi. Ordinatsion fazoda geobotanik qaydnomalar to‘rtta asosiy guruhga birlashtirilgan (2-rasm). Ushbu guruhlar fitotsenozlarining tur tarkibi va tuzilishini tahlil qilish quyidagi xususiyatlarni aniqladi:

Birinchi guruhga senofloraning quyidagi faol yadrosiga ega senozlar kiradi (faollikning 72 dan 20 gacha pasayishiga qarab tartiblanadi): *Medicago sativa* L., *Agropyron fragile* (Roth.) P.Candargy, *Poa bulbosa* L., *Rhaponticum repens* (L.) Hidalgo va boshqalar. Bu guruh asosan Qoraqalpoq Ustyurtining Sharqiy chinkida tarqalgan o‘simlik jamoalari: efemerzor, bug‘doyiqzor, bedali-shuvoqzor, qora tomirli-bedazor, qo‘ng‘ir qumuzumzor, burmaqorazor va boshqalarni birlashtiradi. Ular tuproq namligi nisbatan yuqori bo‘lgan yashash joylarini egallaydi.



2-rasm. Qoraqalpoq Ustyurti yaylov o‘simliklari qoplamini ifodalovchi geobotanik qaydnomalarning SSA-ordinatsiyasi. 1-4 – qaydnomalar guruhlari. Ekologik omillar vektorlari: W – tuproq namligi, S – tuproq sho‘rligi, D – antropogen digressiya.

Ikkinchi kam sonli qaydnomalar guruhi sho‘r yashash joylariga mansub o‘simlik jamoalarini ifodalaydi. Bunday jamoalarga Qoraqalpoq Ustyurtining janubidagi Borsakelmas botig‘ida, Sariqamish ko‘li bo‘yida, Qoplonqirning sho‘rxok daralarida va boshqa pasttekisliklarda tarqalgan qorabaroqli-shohilakzor, shohilakli-saksovulzor, qorasaksovulli-buyurg‘unzor, shohilakli-buyurg‘unzor, sarsazanli-buyurg‘unzor va boshqa jamoalar kiradi. Ushbu guruh faol gipergalofitlardan *Kalidium caspicum* (L.) Ung.-Sternb., *Halocnemum strobilaceum* (Pall.) M.Bieb., *Halostachys caspica* (M.Bieb.) C.A.Mey. iborat.

Uchinchi guruh yuqori faol turlarning o‘rtacha soni bilan tavsiflanadi, ularning differentsiatsiyalovchi kombinatsiyasiga terofitlar ham, fanerofitlar ham kiradi: *Haloxylon ammodendron* (C.A.Mey.) Bunge ex Fenzl., *Ceratocarpus arenarius* L., *Xylosalsola arbuscula* (Pall.) Tzvelev, *Ranunculus falcatus* L. va boshqalar. Bu guruhga gipslashgan, o‘rtacha qalinlikdagi qum qatlami bilan qoplangan, ba'zi joylarda shag‘alli yuza hosil qilgan tuproqlarda yashovchi kserofitlar kiradi. Ushbu guruh yaylovlar degradatsiyasi omiliga nisbatan qaydnomalar maqomining eng yuqori ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Buni differentsiatsiyalovchi turlar tarkibida *Ceratocarpus arenarius* (faollik 80), *Ranunculus falcatus* (40) kabi yuqori yaylov yuklamasi ko‘rsatkichlarining mavjudligi tasdiqlaydi. Bundan tashqari, umumiy turlar orasida boshqa

guruhlarga nisbatan eng yuqori faollikni *Lepidium perfoliatum* L. va *Eremopyrum bonaepartis* (Spreng.) Nevski namoyon qiladi. Yuqorida keltirilgan differentsiyalovchi va barcha qaydnoma guruhlari uchun umumiy bo‘lgan turlar Qoraqalpoq Ustyurtining janubida (Assakeaudan, Sho‘rja hududlari), shimolda (Churuq qudug‘i atrofida), shuningdek, o‘rganilayotgan hududning markaziy qismida (Beleuli xarobalari atrofida) tarqalgan qoraboyalishzor, yakansimonqandimli-shuvoqzor, shuvoqli-saksovulzor, shuvoqli-boyalishli-quyrovuqzor va boshqa jamoalar tarkibida turli miqdorda uchraydi.


Qaydnomalarning to‘rtinchi (markaziy) guruhi eng ko‘p qaydnomalar soni bilan tavsiflanadi (umumiy qaydnomalarning 75,8%), bu yana bir bor Ustyurt o‘simlik qoplamining gomogen xususiyatini ko‘rsatadi. Tuproq namligi va sho‘rlanish gradiyenti bo‘yicha bu jamoalar mos ravishda 10-18 (6,6%) va 16-19 (10%) pog‘onalarni egallaydi va I.A. Satsenkin (1967) tasnifiga ko‘ra, cho‘l namligi va kuchsiz sho‘rxok sho‘rlanishga to‘g‘ri keladi.

Qaydnomalarning markaziy guruhi uchun o‘simlik jamoalari va ularning tur tarkibi klaster tahlili yordamida amalga oshirildi, natijalar klaster-dendrogramma ko‘rinishida taqdim etildi (3-rasm). Qaydnomalarning o‘xshashligini aks ettiruvchi klaster-dendrogramma zich to‘plamni hosil qiladi, bu esa ushbu o‘simlik jamoalarini tashkil etuvchi turlarning ekologik afzalliklarining o‘xshashligini ko‘rsatadi. Dendrogrammada qaydnomalarning markaziy guruhi A va B deb belgilangan ikkita asosiy klasterga bo‘lingan. Ushbu klasterlar ichida har birida to‘rttadan 8 ta guruh ajratilgan.

A klasterning differentsiyalovchi turlari tavsifiga 5 ta terofit: *Climacoptera lanata* (Pall.) Botsch., *Ceratocarpus arenarius* L., *Halimocnemis sclerosperma* (Pall.) C.A.Mey., *Ranunculus falcatus* L. va *Lepidium perfoliatum* L. kiradi (jadval). Ushbu turlarning barchasi antropogen bosim yuqori bo‘lgan hududlarda shakllangan jamoalarni ifodalaydi. Bunday maydonlar gaz quvurlari bo‘ylab, konservatsiya qilingan gaz quduqlari atrofida, shuningdek, mavjud quduqlar yaqinida joylashgan.

B klaster keng tarqalgan gipsofit jamoalarga xos bo‘lgan 7 turni birlashtiradi (jadval).

Jamoalarning floristik tarkibiga oid formallashtirilgan tahlil asosida yuqorida tavsiflangan klasterlarning har biri 4 ta guruhga ajratildi. A klasterida birinchi va ikkinchi guruhlar boshqa klasterlarda ham mavjud bo‘lgan keng tarqalgan cho‘l o‘simliklari tur va dominant asosini tashkil etuvchi fon yaylov jamoalarini ifodalaydi. Bu esa ushbu guruhlar qaydnomalarida differentsiatsiyalovchi turlarning mavjud emasligiga sabab bo‘ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ikkinchi guruhda *Anabasis salsa* ustunlik qiladi, bu istisnosiz ushbu guruhning barcha qaydnomalarida uchraydi. Birinchi guruh qaydnomalarida buyurg‘un (*Anabasis salsa*) bilan bir qatorda *Artemisia terrae-albae* Krasch. va *Caroxylon orientale* (S.G.Gmel.) Tzvelev yetakchi o‘rinni egallaydi.



3-rasm. To‘rtinchi (markaziy) guruh qaydnomalarining klaster-dendrogrammasi: A va B – klasterlar, 1-8 – guruhlar.

Jadval

Differentsiatsiyalovchi turlar
(turlarning uchrash darajasi foizlarda keltirilgan)

Tavsiflar soni	58	108
Klaster	A	B
A klasterni farqlovchi turlar		
Climacoptera lanata	24	9
Ceratocarpus arenarius	18	6
Halimocnemis sclerosperma	16	7
Ranunculus falcatus	14	4
Lepidium perfoliatum	10	
B klasterni farqlovchi turlar		
Oreosalsola arbusculiformis	6	33
Anabasis eriopoda		20
Convolvulus fruticosus	1	18
Limonium suffruticosum	7	14
Haplophyllum obtusifolium		13
Xylosalsola chiwensis	5	12
Capparis spinosa		10
Ko‘p uchraydigan umumiy turlar		
Artemisia terrae-albae	63	74
Anabasis salsa	96	69
Caroxylon orientale	68	61
Eremopyrum orientale	40	37
Atraphaxis spinosa	17	36
Anabasis brachiata	26	35
Haloxylon ammodendron	22	27
Halimocnemis villosa	10	8

Uchinchi guruh buyurg‘unli, qirqbo‘g‘umli-buyurg‘unzor va buyurg‘unli-shuvoqli-boyalishzor jamoalarini birlashtiradi. Qirqbo‘g‘umli-buyurg‘unzor jamoalari asosan Ustyurtning janubiy va o‘rta qismida, toshli, shag‘alli, ba'zi joylarda o‘rtacha qoplam darajali (20% gacha) sho‘rxok tuproqlarda uchraydi. Floristik tarkibi kamsonli bo‘lgan buyurg‘unli-shuvoqli-boyalishzor jamoalari, asosan, Ustyurtning shimoliy va shimoli-sharqiy qismidagi qumloq, shag‘alli kulrang-qo‘ng‘ir, sho‘rxok yoki sho‘rxok tuproqli balandlik va yonbag‘irlarni egallaydi. Beshta tur: *Halimocnemis villosa* Kar. & Kir., *H. gamocarpa* Moq., *Ferula caspica* M.Bieb., *Soda foliosa* (L.) Akhani va *Ceratocarpus arenarius* L. uchinchi guruhni induktsiyalaydi. Bu guruh ko‘pincha buyurg‘un ustunlik qiladigan buzilgan yashash joylarining senozlari hisoblanadi. Bunday jamoalar quduqlar atrofidagi ochiq maydonlarda, gaz quduqlari atrofida va foydalanilmagan tuproq yo‘llari bo‘ylab uchraydi.

